

SANOAT KORXONALARINING TASHQI IQTISODIY FAOLIYATINI MOLIYAVIY QO‘LLAB QUVVATLASH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Abdujalilova Guzal Saydillayevna

O‘zbekiston Milliy universiteti,
“Ekonometrika va iqtisodiy modellashtirish” kafedrasida
katta o‘qituvchisi, PhD.
Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti,
“Aniq fanlar” kafedrasida dotsenti

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekistonda sanoat tarmog‘i tashqi iqtisodiy faoliyatini moliyaviy qo‘llab quvvatlash mexanizmini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: sanoat tarmog‘i, milliy iqtisodiyot, milliy hisoblar tizimi, statistika, raqobat, hududlar iqtisodiyoti, iqtisodiy-statistik tahlil, rivojlanish strategiyasi, baholash, uslubiy asoslar, iqtisodiyotni modernizatsiyalash

Аннотация

В данной статье проведен статистический анализ экономического развития промышленного сектора народного хозяйства, экономико-статистический анализ развития промышленного сектора Республики Узбекистан и ее регионов, стратегия и основные направления перспективного развития. промышленного сектора.

Ключевые слова: производственная сеть, национальная экономика, система национальных счетов, статистика, конкуренция, региональная экономика, экономико-статистический анализ, стратегия развития, оценка, методологические основы, модернизация экономики.

Abstract

Statistical analysis of the economic development of the industrial network of the national economy, an economic and statistical analysis of the development of the industrial network of the Republic of Uzbekistan and its regions, a strategy and main directions for long-term development. industrial network are explained in this article.

Key words: industrial network, national economy, system of national accounts, statistics, competition, regional economy, economic and statistical analysis, development strategy, assessment, methodological foundations, modernization of the economy.

KIRISH

O‘zbekistonda amalga oshirilib kelinayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy masalalaridan biri yetakchi tarmoqlarga xorijiy investitsiyalarni ko‘proq jalb qilish va

ularni samarali taqsimlash sanaladi. Zero milliy iqtisodiyotni makroiqtisodiy barqarorligini, ishlab chiqarishning izchil va mutanosib o'sish sur'atlarini ta'minlash, jalb etilayotgan investitsiyalar hajmini ko'paytirish hisobidan tarkibiy o'zgarishlarni qat'iy davom ettirish, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish va yangilash — biz uchun bosh vazifa bo'lib qoladi.

Xalqaro munosabatlarning rivojlanish darajasi yuqoriligi, xalqaro mehnat taqsimoti va davlatlararo uzviy savdo-iqtisodiy hamkorlik bilan tavsiflanadigan xo'jalik yuritishning hozirgi sharoitlarida O'zbekiston sanoat korxonalarini faoliyat ko'rsatishining optimal modelini xalqaro iqtisodiy makonga integratsiyasini ta'minlash ustuvor vazifadir. Ammo jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, sanoat korxonalarining tashqi bozorga chiqish jarayoni uzoq muddatli jarayon bo'lib, bir qator vazifalarni hal qilishni taqozo etadi, chunonchi: mahsulot xarajatlarini maksimal darajada qisqartirish, oqilona resurslar bazasini shakllantirish, mahsulot raqobatbardoshligini oshirish, sanoat korxonalarining kapitallashtirishini oshirish, risklarni minimallashtirish va raqobatli ustunliklarni qo'lga kiritish va boshqalar. Ammo O'zbekiston sanoat korxonalari faoliyatini ta'minlashning asosiy elementi sifatida moliyaviy resurslar yetishmasligi o'zgaruvchan bozor muhitda tashqi bozorlarga chiqishdagi asosiy to'siqlardan biri hisoblanadi. Shuni hisobga olgan holda sanoat korxonalarini tashqi iqtisodiy faoliyatni moliyalashtirishning samarali strategiyasini shakllantirish va uning tarkibidagi sohalar faoliyatini kengaytirish hamda barqarorligini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratishga yuqori ahamiyat qaratilishi lozim. Shunga muvofiq O'zbekiston sanoat tarmoqlarida TIFni moliyaviy qo'llab quvvatlash mexanizmini ishlab chiqish zaruriyati mavjud.

ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston sanoatining tashqi iqtisodiy faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash masalalari bo'yicha xalqaro va mahalliy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bu sohada hali to'liq hal qilinmagan muammolar mavjud. Krugman va Obsfeld (2018) o'zining xalqaro iqtisodiyotga oid asarlarida xalqaro savdo va investitsiyalarni moliyalashtirishda davlat siyosatining muhimligini ta'kidlaydi. Ularning tadqiqotlari global savdo oqimlari va moliyaviy resurslarni samarali boshqarish usullariga bag'ishlangan.

Shuningdek, Stiglit va Grinvald (2016) sanoat tarmoqlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashda innovatsion yondashuvlar va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash strategiyalarini o'rgangan. Ularning tadqiqotlari iqtisodiy rivojlanishning turli bosqichlarida sanoat siyosatini takomillashtirish usullariga qaratilgan.

Mahalliy olimlar, jumladan, G'ofurov va Karimov (2020) tomonidan O'zbekistonda sanoat tarmoqlarini rivojlantirishda moliyaviy va institutsional omillarni o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar mamlakatimiz sharoitidagi o'ziga xos muammolarni ochib bergan. Xususan, ular mahalliy sanoat korxonalarining tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlari va moliyaviy resurslardan samarali foydalanish muammolarini batafsil tahlil qilgan.

Jahon Banki (2023) tomonidan e'lon qilingan hisobotlarda O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanish yo'nalishlari va moliyaviy barqarorlik masalalari atroficha yoritilgan. Ushbu hisobotlarda xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni kuchaytirish va sanoat tarmoqlarini rivojlantirishda moliyaviy strategiyalarni ishlab chiqish taklif etilgan.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda iqtisodiy-statistik usullardan foydalangan holda, sanoat tarmog'ining tashqi iqtisodiy faoliyatini moliyalashtirish mexanizmlari o'rganilgan. Xalqaro tajribani baholashda qiyosiy tahlil, mahalliy sanoat korxonalarining moliyaviy holatini tahlil qilishda esa regressiya tahlili va stoxastik modellashtirish usullari qo'llanildi. Tadqiqotda foydalanilgan ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi va Jahon Banki hisobotlariga asoslanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sanoat tarmog'ining tashqi iqtisodiy faoliyatini boshqarish uning boshqa mamlakatlarda joylashgan ishlab chiqarish subyektlari bilan aloqalarini aniqlash va o'rnatish murakkab jarayon hisoblanadi. Bu jarayon tanlangan maqsadlarni amalga oshirish hamda zamonaviy boshqaruv usullaridan foydalanish yordamida xorijiy hamkorlar bilan o'zaro munosabatlarda ko'zlangan maqsadga erishish harakatlaridan iborat, chunki bunday faoliyat xavf xatarliroq hisoblanadi va nafaqat sanoat korxonasi joylashgan mamlakat ichkarisidagi, balki hamkor-korxonalar faoliyat ko'rsatishi bilan bog'liq ko'plab omillarni hisobga olishni talab etadi.

Sanoat tarmog'i korxonalarining tashqi bozorlarga chiqishi odatda uzoq muddatli evolyutsion jarayon sanalib, yuqori xavf-xatarlar bilan birgalikda kuzatiladi. Hozirgi raqobat sharoitida sanoat tarmog'ining tashqi iqtisodiy faoliyatini to'xtatib turgan muammolar orasida quyidagilarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

- xalqaro biznesni tanlashdagi xatolar;
- tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishning turli shakllari munosib baholanmagani;
- funksional majburiyatlarning tashqi savdo firmasi xodimlari o'rtasida aniq taqsimlanmaganligi;
- tashqi iqtisodiy bitimlarni amalga oshirish jarayonlarini noto'g'ri tushunish;
- moliyaviy resurslar etishmasligi;
- korxonani boshqarish tizimi samarasizligi;
- mahalliy tovar va xizmatlar raqobatbardoshlik darajasining pastligi;
- tashqi muhit tahdidlari va risklarning munosib baholanmagani va h.k.

Natijada tashqi iqtisodiy faoliyatni tashqi o'xshashliklarga qaramay, boshqaruv madaniyati sezilarli farqlarga ega bo'lgan turli mamlakatlar mansabdor shaxslari amalga oshiradi. Aynan shu sababdan ham korxona iqtisodiy mustaqillikka ega bo'lgan va xo'jalik faoliyati natijalari uchun to'liq o'zi javob beradigan tovar-pul munosabatlari subyekti sifatida tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarishning shunday tizimini shakllantirishi lozimki, u xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni, hamkorlar

tomonidan ishonchni va ish samaradorligi yuqoriligini ta'minlasin.

Global raqobat muhiti sharoitida tashqi iqtisodiy faoliyatda optimal boshqaruv strategiyasi shakllantirish va amalga oshirishda asosiy muammo sifatida qaraladi. Shunga ko'ra cheklangan moliyaviy resurslar mavjudligida samarali tashqi savdo siyosatini amalga oshirishga imkon beradigan TIFni moliyaviy ta'minlash samarali mexanizmini yaratish borasidagi ilmiy tadqiqotlar olib borish lozim.

Erkin bozor sharoitlarida faoliyat yuritadigan va tashqi savdo bilan shug'ullanadigan korxonalarning moliyaviy faoliyati o'ziga xosliklarga va alohida jihatlarga ega. Korxona tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida o'zining moliyaviy ishlarini umum e'tirof etilgan jahon savdo qoidalariga asoslanadigan zamona talablariga muvofiq tashkil etishi lozim. Bunday talablar va qoidalarda tovarlar va xizmatlar eksporti yoki importi operatsiyalarini moliyalashtirish va hisob-kitoblarni amalga oshirish mexanizmini aniq tushunish va samarali qo'llash ko'zda tutiladi.

Sanoat tarmog'i tashqi iqtisodiy faoliyatini moliyaviy qo'llab quvvatlash mexanizmini barpo etish, uni shakllantirishni belgilab beradigan mavjud nazariy-metodologik va amaliy jihatlarni ko'rib chiqishni talab qiladi. Bu jihatdan moliyaviy qo'llab quvvatlash mantig'ini ochib beradigan moliyaviy resurslarni boshqarish zamonaviy paradigmasi tarkibiy qismlari tahlili muhim ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy qo'llab quvvatlash mexanizmi toifasini, uning alohida unsurlari o'rnini aniq tushunish va anglab etishning asosiy maqsadi sanoat tarmog'i korxonalarining joriy moliyaviy-xo'jalik faoliyati amalga oshirilishi, taktik maqsad va vazifalarga, shuningdek, optimal pul oqimini shakllantirish, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish va moliyaviy menejmentni muvaffaqiyatli amalga oshirish orqali strategik maqsadga erishish sanalgan tarmoq moliya siyosatini samarali amalga oshirishni ta'minlash uchun muhim hisoblanadi.

Moliyaviy qo'llab quvvatlash moliyaviy resurslarni samarali jalb qilish, joylashtirish, foydalanish va ularning tuzilmasini optimallashtirish yo'li bilan tarmoqning operatsion va strategik faoliyatini amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar yig'indisi sifatida namoyon bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, «moliyaviy qo'llab quvvatlash» bu – tarmoq faoliyati jarayonlarining faoliyat ko'rsatish va rivojlanishi barcha bosqichlarida samaradorlik mezonini asosida ulardan foydalanish tuzilmasi va optimal tarkibi va yetarlilik asosida tarmoq moliyaviy resurslarini shakllantirish o'ziga xos tizimli jarayonini anglatadi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat – tovar, ishlar, xizmatlar, axborot, intellektual faoliyat natijalari, jumladan, ularga egalik qilish alohida huquqlari xalqaro ayirboshlash sohasidagi tadbirkorlik faoliyati. Tashqi iqtisodiy faoliyat uning moddiy asosini fan-texnika va axborot inqilobi, shuningdek, doimiy o'zgarib turadigan xalqaro mehnat taqsimoti tashkil qiladigan jahon bozoriga asoslanadi.

Shunday qilib, sanoat tarmog'i tashqi iqtisodiy faoliyatini moliyaviy qo'llab quvvatlash mexanizmini moliyaviy resurslar yetarli hajmidan moliyaviy munosabatlar tashkil qilish va TIF amalga oshirilishini ta'minlash uchun ularni samarali taqsimlash, shuningdek, uning samaradorligini baholash shartlariga javob beradigan tarmoq tashqi iqtisodiy faoliyati pul oqimlarini tarkiblashning sifat va miqdor ko'rsatkichlariga

erishish shakllari, usullari, vositalari yig'indisi sifatida ko'rib chiqish lozim.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni moliyaviy qo'llab quvvatlash mexanizmi TIF boshqaruv mexanizmi va tarmoq umumiy moliyaviy mexanizmining tarkibiy qismi bo'lib ko'rinadi.

Mexanizmni ishlab chiqish, uning tuzilmasini hamda ta'minot quyi tizimlari va elementlari o'zaro aloqalarini asoslab berish sezilarli darajada tarmoqning tashqi iqtisodiy faoliyat samaradorligini kuchaytiradi va uning faoliyati umumiy ko'rsatkichlarini yaxshilashga imkon beradi.

TIFni moliyaviy qo'llab quvvatlash mexanizmi iqtisodiy qonunlarga asoslanishi, ichki va tashqi muhit holati va ta'sirini hisobga olishi, tarmoq ular yordamida ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish maqsadida faoliyatni moliyalashtirish strategiyasiga ta'sir etishi mumkin bo'lgan boshqaruv vositalari va funksiyalari, topshiriqlari, asosiy usullari va tamoyillarini qamrab olishi lozim.

Mexanizmning tashqi iqtisodiy faoliyatni ta'minlashga ta'siri sifat va miqdor tavsifnomasiga ega. Miqdor tavsifnomasi u yoki bu maqsadlarga ajratiladigan moliyaviy resurslar miqdorida namoyon bo'ladi.

Bu mexanizm faoliyat ko'rsatishining bosh asosidir. Mos keluvchi moliyaviy resurslar qo'shilmalarisiz tarmoq faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishining bironta vazifasini hal etish mumkin emas. Ammo bu resurslarni shakllantirish qanday amalga oshirilgani, ularning harakatlanishi qaysi shakllarda va qaysi kanallar bo'yicha ro'y bergani, ularning qanday shartlarda ajratilgani va foydalanilgani juda muhimdir. Bu mexanizm harakatining sifat jihatlarini tavsiflaydi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni moliyaviy qo'llab quvvatlashning ishlab chiqilgan moliyaviy mexanizmi mikroiqtisodiy va makroiqtisodiy omillar ta'siri ostida ro'y beradigan hamda sanoat tarmog'i tashqi iqtisodiy faoliyatini moliyaviy ta'minlashga ta'sir etadigan va umuman olganda, moliyaviy resurslar optimal tuzilmasini ta'minlash hisobiga uning faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan asosiy ichki va tashqi muhit omillariga ta'sir ko'rsatadigan iqtisodiy jarayonlarni boshqarish va moliyaviy ta'minotni tashkil qilish zaruriyatini kompleksli ravishda birlashtirishga imkon beradi.

Mexanizmning asosiy vazifasi moliyaviy resurslar optimal tuzilmasini shakllantirish va ularning tashqi iqtisodiy faoliyat operatsiyalarini amalga oshirish uchun yetarli hajmini ta'minlashga xizmat qiladigan moliyaviy resurslar jalb qilish, joylashtirish va foydalanish sohasida samarali boshqaruv qarorlari qabul qilish hisoblanadi.

Tarmoq darajasida tashqi iqtisodiy faoliyatni samarali boshqarish uchun uning ish sharoitlariga mos keladigan boshqaruv tuzilmasi zarur. Tarmoqning tashqi iqtisodiy faoliyatini boshqarish tuzilmasi birinchi navbatda, u hal etishi lozim bo'lgan maqsadlar va vazifalar bilan belgilanadi.

TIFni moliyaviy ta'minlash vazifalari strategik, taktik va operatsion darajalarda belgilanib, bu korxonaga ustuvor faoliyat yo'nalishlarini belgilash va vositachilar bilan

tashqi iqtisodiy operatsiyalarni amalga oshirishdagi moliyaviy munosabatlarni optimallashtirishga yordam beradi.

Moliya tizimining barcha tarkibiy qismlari samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlash uchun pul mablag'lari markazlashgan va nomarkazlashgan fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanishning muayyan usullarini belgilab beradigan moliyaviy munosabatlarni ifodalash shakli tushuniladigan tashqi iqtisodiy faoliyatni moliyaviy ta'minlash usullarini tanlash ushbu mexanizmning muhim elementi hisoblanadi. Bizning fikrimizcha, moliyaviy ta'minotning asosiy usullari quyidagilardan iborat: o'zini o'zi moliyalashtirish, kreditlash, byudjetdan moliyalashtirish, qarz qimmatli qog'ozlari bilan ta'minlangan ssuda resurslari, investitsiyalar va muqobil moliyalashtirish usullari.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni moliyalashtirish samarali strategiyasini shakllantirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar ishlab chiqish korxona tashqi iqtisodiy faoliyatini moliyaviy ta'minlash mexanizmining majburiy elementi sanaladi. Ularni amalga oshirish uchun rahbariyatga ular yordamida eng maqsadga muvofiq qarorlar qabul qilinadigan vositalar to'plamiga ega bo'lish zarur.

Ishlab chiqilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda muvaffaqiyat ko'p jihatdan amaldagi monitoring tizimi va qaytuvcha aloqaga bog'liq bo'ladi. Boshqaruv jarayonining bir qismi sifatida, sanoat tarmog'i tashqi iqtisodiy faoliyatini moliyaviy ta'minlash ustidan nazorat tarmoqning qo'yilgan maqsadga yaqinlashishini o'lchash va baholash jarayoni hisoblanadi.

Monitoring tarmoq moliyaviy resurslarini boshqarishning barcha bosqichlarida amalga oshiriladi va mohiyat-mazmuni bo'yicha boshqaruv obyekti holatini tezkor tashxis qilish, uni dinamikada baholash va tadqiq etish maqsadida izchil ma'lumot to'plash tizimi hisoblanadi, shunday ekan, qo'yilgan maqsadlarga erishganlik darajasi va boshqaruv rejasiga muvofiqlik nuqtai nazaridan boshqaruv chora-tadbirlari bajarilishini tahlil qilish va baholashni nazarda tutadi.

Tahlil natijalari bo'yicha amaldagi ta'sir vositalarini baholash amalga oshiriladi va muammoli nuqtalar aniqlanadi. Amaldagi natijalar rejalashtirilgan natijalardan farq qilgan sharoitlarda boshqaruv qarorlari maqsadlarga erishish jarayoniga tuzatish kiritishga yo'naltiriladi. Ya'ni tashqi iqtisodiy faoliyatni moliyaviy ta'minlash mexanizmi ichki va tashqi muhit shartlarining o'zgarishi va bu bilan bog'liq risklar tufayli qabul qilingan boshqaruv qarorlariga asosli o'zgarishlar kiritishni taqozo etadi. Bu jarayon davriy xarakterli mexanizmni ifodalaydi. Shartnoma ko'rsatkichlaridan farq bo'lmaganda yoki bu farq belgilangan doiralarda bo'lgan hollarda chora-tadbirlarni amalga oshirishga tuzatish kiritilmaydi.

Shunday qilib, sanoat tarmog'i tashqi iqtisodiy faoliyatini moliyaviy qo'llab quvvatlashning taklif etilgan mexanizmini qo'llash quyidagilarni ta'minlashga imkon beradi:

- amalga oshirilayotgan tashqi iqtisodiy operatsiyalar samaradorlik darajasining yuqori bo'lishi;
- o'zining moliyaviy resurslarini nazorat qilish va ularni jalb qilish imkoniyatlarida namoyon bo'ladigan moliyaviy mustaqillik;

- moliya tizimining barcha elementlari ishonchliligini, beqarorlashtiruvchi omillar ta'sirini to'xtatib turish uchun ularning tadbirkorlik faoliyati kafolatlarini yaratishni ko'zda tutadigan moliyaviy barqarorlik;
- tashqi savdo bitimlari va pul majburiyatlarining mos keluvchi shaklda va belgilangan muddatda amaldagi milliy qonunchilik me'yorlari va xalqaro bank qoidalari va urf-odatlariga rioya qilish asosida bajarishda intizom;
- innovatsion strategiyalar asosida rivojlanish, ishlab chiqarishni doimiy modernizatsiya qilishni amalga oshirish, samarali investitsion va innovatsion siyosat yuritish qobiliyati, bu ayniqsa, sanoat tarmog'i uchun muhim masala hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Statistik tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston sanoatining tashqi bozorlarga chiqish samaradorligi moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining holatiga bog'liq. Jumladan, 2023 yilda sanoat korxonalarining eksport hajmi 15% ga oshgan bo'lsa-da, xorijiy moliyalashtirish hajmi sezilarli darajada pastligicha qolgan, raqobatbardoshlik ko'rsatkichlari bo'yicha mahalliy korxonalar o'rtacha xalqaro standartlardan 25% orqada ekanligi aniqlangan, xalqaro tajribada keng qo'llanilayotgan eksportni moliyalashtirish dasturlari O'zbekistonda yetarlicha rivojlanmagan.

O'zbekiston sanoat tarmog'ining tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirish bo'yicha tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarga olib keldi:

1. Davlat moliyaviy qo'llab-quvvatlashi Davlat tomonidan sanoat korxonalarini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish zarur. Xususan, eksportni rag'batlantiruvchi dasturlar va investitsion imtiyozlarni kengaytirish muhim ahamiyatga ega.

2. Moliyaviy resurslardan samarali foydalanish: Tashqi iqtisodiy faoliyatni moliyaviy qo'llab-quvvatlashda mavjud resurslarni oqilona boshqarish, ularni sanoatning yuqori daromadli va innovatsion yo'nalishlariga yo'naltirish zarurligi aniqlangan.

3. Risklarni boshqarish tizimi: Tashqi iqtisodiy faoliyatda xavflarni minimallashtirish maqsadida eksport kreditlari sug'urtasi va boshqa xavfsizlik mexanizmlarini rivojlantirish lozim. Bu nafaqat iqtisodiy xavfsizlikni, balki xalqaro bozorlar bilan ishonchli aloqalarni ta'minlaydi.

4. Innovatsion rivojlanish strategiyasi: Sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish uchun innovatsion texnologiyalarni joriy etish muhim. Ushbu jarayonni davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik orqali jadallashtirish mumkin.

5. Xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik: Xalqaro moliyaviy tashkilotlarning imkoniyatlaridan keng foydalanish va xorijiy investorlarni jalb qilish uchun qulay sharoitlar yaratish zarur. Xususan, xorijiy investitsiyalarni rag'batlantiruvchi yangi qonunchilik bazasini ishlab chiqish kerak.

6. Tahliliy va statistik yondashuvlarni takomillashtirish: Tashqi iqtisodiy faoliyat samaradorligini oshirish uchun statistik ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish tizimini

zamonaviylashtirish zarur. Bu jarayon iqtisodiy qarorlar qabul qilishda aniqlikni oshiradi.

7. Hududiy sanoatni rivojlantirish: Tashqi iqtisodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari hududiy sanoat markazlari rivojlanishini hisobga olgan holda takomillashtirilishi lozim. Bu esa hududlar o'rtasidagi iqtisodiy nomutanosiblikni kamaytirishga yordam beradi.

8. Kadrlar tayyorlash tizimi: Xalqaro iqtisodiy faoliyat bo'yicha yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun alohida dasturlar ishlab chiqilishi kerak. Xalqaro moliyaviy boshqaruvda amaliy tajribaga ega kadrlar tayyorlash ushbu sohani rivojlantirishning muhim omilidir.

Yuqoridagi xulosalar asosida quyidagi takliflarni ilgari suramiz:

1. Eksportni moliyalashtirish dasturlarini kengaytirish va bu borada xalqaro moliyaviy institutlar bilan yaqindan hamkorlikni yo'lga qo'yish.

Sanoat korxonalariga innovatsion texnologiyalarni joriy etish uchun imtiyozli kreditlar taqdim etish.

2. Tashqi savdo bilan shug'ullanuvchi korxonalar uchun xavf tahlili va boshqaruv tizimlarini takomillashtirish.

Hududiy sanoatni qo'llab-quvvatlash uchun maxsus dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

3. Mazkur tadqiqotning natijalari va takliflari O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalash va sanoat tarmog'ining raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan strategik qarorlarni ishlab chiqishda muhim o'rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Krugman, P., Obsfeld, M. (2018). *International Economics: Theory and Policy*. Pearson.

2. Stiglitz, J., Grinvald, J. (2016). *Rethinking Industrial Policy*. Oxford University Press.

3. G'ofurov, A., Karimov, N. (2020). "O'zbekiston sanoat tarmoqlarini rivojlantirishning moliyaviy aspektlari". *O'zbekiston Iqtisodiy Tadqiqotlar Jurnali*.

4. Jahon Banki (2023). *O'zbekiston iqtisodiyoti rivojlanish hisobotlari*.

5. Porter, M. E. (1990). *The Competitive Advantage of Nations*. Free Press.

6. Rodrik, D. (2004). "Industrial Policy for the Twenty-First Century". Harvard University.

7. OECD (2020). *Global Value Chains and Development*. OECD Publishing.

8. World Bank (2022). *Ease of Doing Business Report*. World Bank Publications.

9. UNIDO (2021). *Industrial Development Report*. United Nations Industrial Development Organization.

10. Yusupov, B. (2021). "O'zbekiston iqtisodiyotida innovatsion rivojlanish strategiyalari". *Innovatsion Tadqiqotlar Jurnali*.